

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

XAKIMOV ULUG‘BEK ABDULLAYEVICH

**PENSIYA JAMG‘ARMASINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor N.G‘.Karimov

Toshkent-2024

MUNDARIJA

	KIRISH	
I BOB	PENSIYA JAMG‘ARMALARINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY VA USLUBIY-HUQUQIY ASOSLARI	
1.1.	Pensiya jamg‘armalarining daromadlarini shakllantirish yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlar	
1.2.	Pensiya ta‘minotida daromadlarni shakllantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari	
1.3.	Xorijiy davlatlarda pensiya jamg‘armalari daromadlarini shakllantirishning ilg‘or tajribalari	
	Birinchi bob bo‘yicha xulosa	
II BOB	O‘ZBEKISTONDA PENSIYA TA‘MINOTI TIZIMINING AMALDAGI HOLATI VA UNING DAROMAD MANBALARI SHAKLLANISHINING TAHLILI	
2.1.	O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari	
2.2.	Pensiya jamg‘armasi daromadlariga determinantlar ta‘sirini ekonometrik baholash natijalari	
2.3.	Pensiya jamg‘armasining daromadlarini shakllantirishning tahlili	
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa	
III BOB	PENSIYA JAMG‘ARMASI MOLIYAVIY TA‘MINOTIDA DAROMADLARNI SHAKLLANTIRISH MEHANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	
3.1.	Pensiya ta‘minoti tizimi daromadlari bo‘yicha moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashning xalqaro tajribalarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari	
3.2.	Global moliyaviy-iqtisodiy ta‘sirlar sharoitida pensiya ta‘minoti tizimida daromadlar barqarorligini ta‘minlash muammolari va ularning yechimlari	
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa	
	XULOSA	
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda pensiya jamg'armalari daromadlarini shakllantirish rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda muqobil va samarali tizimlar shakllangan. Mazkur tizimlar pensiya jamg'armasi daromadlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda o'ziga xos xususiyatlarga ega. "Global pensiya indeksi 2023" hisobotiga ko'ra, "Pandemiyadan keyingi dunyoda inflyatsiyaning qayta paydo bo'lishi, foiz stavkalarining oshishi, geosiyosiy noaniqliklar sharoitida pensiya jamg'armalari daromadlari nobarqaror tebranmoqda. Mamlakatdagi pensiya ta'minoti tizimi bo'yicha qoplash koeffitsientining minimal miqdori yo'qotilgan ish haqini 40% ga teng bo'lishi maqsadga muvofiq. Bunda har bir pensionerga 5-6 ta ishlovchi to'g'ri kelishi va to'lovlar davlatning "birdamlik" tamoyiliga qat'iy amal qilingan tizimiga asoslanishi o'z samarasini beradi¹". Amaldagi "birdamlik" tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi pensiya jamg'armalari aralash tizim asosida ushbu yangi mexanizm elementlarini o'z faoliyatiga tatbiq etmoqda.

Jahonda pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish, pensiya ta'minoti tizimiga ijtimoiy sug'urta mexanizmi xususiyatlarini singdirish, pensiya jamg'armasi daromadlaridan investitsion maqsadlarda foydalanish orqali jamg'arma moliyaviy daromadlari hajmini diversifikatsiya qilish, pensiya yoshini demografik vaziyat va shart-sharoitlardan kelib chiqib o'zgartirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor berilmoqda. Pensiya jamg'armasi daromadlari shakllanishiga demografik omillar ta'sirini aniqlash, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari samaradorligini baholash, pensiya jamg'armasi daromadlaridan foydalaniladigan instrumentlarni yanada takomillashtirish, iqtisodiy inqirozli vaziyatlarning pensiya ta'minoti tizimiga ta'sirini kamaytirish kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari shakllanishini takomillashtirish, daromadlar manbalarini diversifikatsiyasini yanada kengaytirish, pensiya ta'minoti tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlash,

¹ "Global pensiya indeksi 2023" hisoboti Mercer CFA Institute. Global Pension Index 2023.

demografik o'sish, o'rtasha umr ko'rish darajasining pensiya ta'minoti tizimiga ta'sirini baholash va xalqaro andozalarni milliy pensiya ta'minoti tizimiga uyg'unlashtirish dolzarb masalalardan biridir. "Pensiyani hisob-kitob qilish uchun o'rtasha ish haqining maksimal miqdorini pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 10 barobaridan 12 barobarigacha oshirish"² vazifasi belgilab berilgan. Mazkur vazifaning ijrosini ta'minlashda milliy pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish, pensiya jamg'armasi daromadlari shakllanishiga ichki va tashqi omillarning ta'sirini baholash, pensiya ta'minotida fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiliklarini oldini olish mexanizmini takomillashtirish, pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy manbalar oqimining uzluksizligini ta'minlash dolzarb ahamiyatga molik masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2023-yil 31-oktabrdagi PQ-353-son "Aholiga pensiya tayinlash bo'yicha ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 592-son "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi, 2023-yil 14-dekabrda 661-son "Ijtimoiy soliqni taqsimlash, pensiya va boshqa to'lovlarni to'lash uchun ajratilgan xarajatlarni qoplash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. [ПФ-158-сон 11.09.2023. «Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисида \(lex.uz\)](#)

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Pensiya jamg‘armasining daromadlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar: G.Tetlow, G.Vobruba, J.Peng, L.Shristensen, A.Moore, S.Sampbell, S.Butler³ asarlarida tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari Y.Azarova, G.Andryushenko, S.Brovshak, D.Gusakov, M.Kulikova, N.Kosarenko, S.Orlov, A.Shemetov, V.Roik, A.Fedotov, A.Ijayeva, T.Emelyanova, N.Borisenko, A.V.Pudovkin, Y.V.Shuprova, N.Sazanovalarning⁴ ilmiy izlanishlarida pensiya ta‘minoti tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, pensiya jamg‘armasi daromadlarini shakllantirish muammolari ko‘rib chiqilgan.

Mamlakatimiz olimlari: A.V.Vaxabov, R.T.Dalimov, N.M.Majidov, B.X.Umurzoqov, G.K.Saidova, M.A.Xakimova, B.Sh.Xusanov, G.A.Kasimova, Sh.U.Rajabov, D.Rustamov, J.Tursunov, D.A.Sholdarov, D.A.Raxmonov,

³ Tetlow G. Essays on the economics of retirement and pensions. A dissertation submitted in partial fulfilment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy of University College London. – England: Department of Economics University College London. 2015. – 224 p.; Vobruba G. Der wirtschaftliche Wert der Sozialpolitik. – Berlin: Duncker u. Humblot, 1989. – 238 s.; Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. – USA.: Auerbach Publications, 2008. – 286 p.; Christensen L., Moore A. Pension Reform Handbook: A Starter Guide for Reformers. Copyright © 2014, Reason Foundation. All rights reserved. – 139 p.; Collin Campbell. Social Insurance in Figures 2018. Swedish Social Insurance Agency. – Stockholm, Sweden. 2018. – 70 p.; Stephen Butler. Roadmap to Retirement Security: How to Build and Conserve Retirement Wealth. – UK: iUniverse, 2014. – 112 p.

⁴ Азарова Е.Г. и др. Социальное обеспечение: настоящее и будущее: Монография. – М.: ИЗСППР, 2017. – 284 с.; Андрющенко Г.И. Модернизация сферы социального страхования в Российской Федерации. Автореф. дисс. ... док-ра. экон. наук. – М.: РГСУ, 2011. – 53 с.; Бровчак С.В. Пенсионное обеспечение. Российский и зарубежный опыт. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 215 с.; Гусаков Д.Б. История пенсионного обеспечения и социального страхования в России. – СПб.: Санкт-Петербургский государственный институт психологии и социальной работы. 2010. – 260 с.; Куликова М.А. Современное состояние эффективности механизмов социально-страхового обеспечения качества жизни населения: Монография. – Тамбов: ТГТУ, 2009. – 104 с.; Косаренко Н.Н. Социальное страхование как фактор развития социальной защиты населения: Монография. – М.: LAP LAMBERT, 2016. – 140 с.; Орлов С.Н., Шеметов А.П. Пенсионное обеспечение в Российской Федерации: Монография. – Курган: Изд-во Курганского гос. ун-та, 2013. – 106 с.; Роик В.Д. Социальная политика: заработная плата и страхование рисков её утраты: Учебник. – М.: ЮРАЙТ, 2019. – 536 с.; Федотов А.И. История возникновения пенсионных систем в зарубежных странах // Труды ИСА РАН. – 2006. – № 23. – С. 308-316.; Ижаева А.Р. Концепция развития пенсионной системы Российской Федерации в посткризисный период: Автореф. дис. ... канд. экон. наук. – М.: ФГБОУ ВПО, 2013. – С. 31.// Емельянова Т.В. Финансовое обеспечение пенсионных систем в странах ЕС и России//Финансы. – М, 2008. - №10. – С. 64. // Борисенко Н.Ю. Построение национальной системы пенсионного обеспечения: теория и практика // Финансы и кредит. 2007. № 17. С. 54–65. // Пудовкин А.В. Мировой опыт формирования пенсионных систем и возможности его использования в России: Дис. ... канд. экон. наук. – М. 2017. – С.16. // Чупрова Е.В. Пенсионное обеспечение граждан в Российской Федерации. Учебное пособие. – М.: Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации, 2017. – 144 с. // Сазанова Н. Пенсионный фонд Российской Федерации, современные проблемы его функционирования. Вестник Евразийской науки The Eurasian Scientific Journal 2022, №1, Том 14 2022, No 1, Vol 14 ISSN 2588-0101 <https://esj.today>.

U.Achilov⁵ ilmiy tadqiqotlarida pensiya ta'minoti tizimining rivojlantirish, pensiya jamg'armasi daromadlari shakllanishi, nodavlat pensiya jamg'armalarini shakllantirish va investitsion faolligini oshirish, O'zbekistonda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari o'rganilgan.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarda, pensiya jamg'armasining daromadlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish masalalari kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Mazkur holatlar dissertasiya ishida tadqiq qilingan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf qilish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini ko'rsatadi.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertasiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga asosan "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi sharoitida bank-moliya, soliq va investitsiya faoliyatini modernizatsiyalash

⁵ Vaxabov A.V. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. – Toshkent: Sharq, 2003. – 320 b.; Vaxabov A.V va boshqalar. Pensiya tizimini rivojlantirishning xorij tajribasi: Darslik – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018 – 400 b.; Vaxabov A.V., Majidov N.M. Jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasining O'zbekistonda investitsiya siyosatini amalga oshirishdagi roli. Monografiya. – Toshkent: Universitet, 2017. – 127 b.; Далимов Р.Т. Мировой опыт реформирования пенсионной системы и его использование в условиях переходной экономики: Автореф. дисс. ... канд. экон. наук: – Ташкент, 2002. – 20 с.; Majidov N.M. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sug'urta tizimini isloh qilish (pensiya tizimi misolida): Iqtisod. fan. nomz. dis. avtoref. – Toshkent, 2003. – 23 b.; Умурзаков Б.Х. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. Монография. – Ташкент: Фан, 2005. – 175 с.; Хакимова М.А. Реформирование и развитие социального сектора Узбекистана в условиях перехода к рынку: Автореф. дисс. ... док-ра. экон. наук. – Ташкент, 2000. – 38 с.; Хусанов Б.Ш. Проблемы регулирования финансового механизма социального обеспечения населения: Автореф. дисс. ... канд. экон. наук. – Ташкент, 2011. – 25 с., "Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: Universitet, 2017. – 203 b. // Kasimova G.A., Ruxitdinov B.M. Pensiya jamg'armasi daromadlari shakllanishi masalalari. Iqtisod va moliya / экономика и финансы 2015, 9, b.: 8. // Ражабов Ш. У. Нодавлат пенсия жамғармаларини шакллантириш ва инвестицион фаолликни ошириш: Иқтисод. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Toshkent – 2018, В-66. // Rustamov D. O'zbekistonda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari. Monografiya. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018. – 200 b. // Tursunov J. O'zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish davrida pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish: Iqtisod. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2019 // Sholdarov d. Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida pensiya ta'minotining moliyaviy barqarorligini ta'minlash: Iqtisod. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2019. // Raxmonov D.A. Yevropa ittifoqi mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimining rivojlanish tendensiyalari: O'zbekistonda qo'llash yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2015. // Achilov U. Pensiya jamg'armasi daromadlari hajmlariga omillar ta'sirining ekonometrik tahlili. SCIENCEPROBLEMS.UZ-Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. S/3(3)-2023. [«Эконометрический анализ влияния факторов на объем доходов пенсионного фонда» \(scienceproblems.uz\)](http://scienceproblems.uz)

muammolarini ilmiy ishlab chiqish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi pensiya jamg‘armasining daromadlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Pensiya jamg‘armalari daromadlarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish;
- pensiya ta’minotida daromadlarni shakllantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini o‘rganish;
- pensiya ta’minoti tizimi daromadlarini shakllantirishning xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish va qiyosiy tizimlashtirish;
- O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish;
- Pensiya jamg‘armasi daromadlari shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ekonometrik tahlil asosida omillar ta’sirini baholash;
- O‘zbekistonda budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlarining shakllanishi va undan foydalanish tahlilini amalga oshirish;
- pensiya ta’minoti tizimi daromadlari bo‘yicha moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning xalqaro tajribalarini amaliyotga tadbiiq etish imkoniyatlari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- global moliyaviy-iqtisodiy ta’sirlar sharoitida pensiya ta’minoti tizimida daromadlar barqarorligini ta’minlash muammolarini aniqlash va ularning yeshimlari bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti pensiya jamg‘armasining daromadlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur dissertasiya tadqiqoti davomida ilmiy sharhlash, nazariy ma’lumotlarni umumlashtirish va abstraksiyalash, eng kishik

kvadratlar usuli orqali ekonometrik modellashtirish, statistik ma'lumotlarga dasturiy ta'minot orqali ishlov berish, kuzatish, tizimlashtirish, qiyosiy taqqoslash, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zini-o'zi band qilgan va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining boshqa turlarini yetishtirish bilan band bo'lgan shaxslar tomonidan ijtimoiy soliq to'langan davrlar pensiya tayinlash uchun mehnat stajiga qo'shib hisoblash taklif etilgan;

inflyatsiya natijasidagi yo'qotishlarning oldini olish maqsadida daromadlarning indeksatsiya qilinishi pensiya miqdorini qayta hisoblab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi ilmiy asoslangan;

ish haqiga mintaqaviy koeffitsientlar belgilangan tumanlarda (shaharlarda) ishlagan shaxslar uchun pensiyalarni qayta hisoblashda mintaqaviy koeffitsient hisobga olingan holda hisoblab chiqilgan amaldagi ish haqini hisobga olish taklif etilgan;

chet ellarda ishlayotgan fuqarolarning hamda ish vaqtini hisobga olib bo'lmaydigan shaxslarning ayrim toifalari tomonidan Pensiya jamg'armasiga to'lovlar amalga oshirish mexanizmi taklif qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ayrim toifadagi jismoniy shaxslar tomonidan ijtimoiy soliqni hisoblab shiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanib, tasniflangan;

Pensiya jamg'armasi daromadlari shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar ekonometrik tahlil qilinib, modellashtirilgan;

O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimi moliyaviy barqarorligi bo'yicha qoplash koeffitsienti hisoblab chiqilgan;

O'zbekistonda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlarini oshirishda "muammo-yechim" qiyosiy mexanizmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot davomida foydalanilgan usullarning xalqaro moliya institutlari tomonidan tavsiya etilganligi, pensiya ta'minoti tizimiga oid statistik ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi,

tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning sohaga oid bo'lgan normativ-huquqiy va idoraviy hujjatlarga kiritilganligi, ushbu dissertasiya tadqiqotlari natijalarining amaliyotda joriy etilganligi borasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi tomonidan berilgan ma'lumotlarga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar pensiya jamg'armasining daromadlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish va ushbu yo'nalishda olib boriladigan kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilmiy izlanishlar davomida ishlab chiqilgan taklif-tavsiyalardan pensiya jamg'armalari faoliyatini rivojlantirishda, "Pensiya ishi", "Moliya", "Davlat budjeti" kabi o'quv fanlari bo'yicha uslubiy qo'llanma, darsliklarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Pensiya jamg'armasining daromadlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish borasidagi tadqiqotlardan olingan ilmiy natijalar asosida:

ijtimoiy soliq to'langan davrlar pensiya tayinlash uchun mehnat stajiga qo'shib hisoblash taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 592-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida nizom"ning 39-bandida o'z aksini topgan (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 13-iyundagi 01/30-03-32/1044-son, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023-yil 13-fevraldagi 14/3-16921-son ma'lumotnomalari). Bunda qoramol yetishtirish va shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish, shuningdek, shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining boshqa turlarini yetishtirish bilan band bo'lgan shaxslar, maydoni to'rt sotixdan kam bo'lmagan dehqon xo'jaligida, tomorqa yerida band bo'lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud 50 boshdan kam bo'lmagan parranda yetishtirish bilan band bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 408-moddasida belgilangan tartiblar asosida ijtimoiy soliq to'langan davrlar pensiya tayinlash uchun

mehnat stajiga qo‘shib hisoblanadi. Natijada, pensiyalar tayinlash uchun ish stajini hisoblab chiqish tartibi takomillashtirilgan.

pensiya miqdorini qayta hisoblab chiqish uchun daromadlarning indeksatsiya qilinishi asos bo‘lib xizmat qilishi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 592-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida nizom”ning 126-bandining “e” kichik bandida o‘z aksini topgan (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 13-iyundagi 01/30-03-32/1044-son, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 13-fevraldagi 14/3-16921-son ma’lumotnomalari). Natijada, pensiyani qayta hisoblab chiqish tartibi takomillashtirilgan.

ish haqiga mintaqaviy koeffitsientlar belgilangan tumanlarda (shaharlarda) ishlagan shaxsga pensiyalarni qayta hisoblashda mintaqaviy koeffitsient hisobga olingan holda hisoblab chiqilgan amaldagi ish haqini hisobga olish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 592-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida nizom”ning 126-bandining “e” kichik bandida o‘z aksini topgan (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 13-iyundagi 01/30-03-32/1044-son, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 13-fevraldagi 14/3-16921-son ma’lumotnomalari). Natijada, ish haqiga mintaqaviy koeffitsientlar belgilangan tumanlarda (shaharlarda) ishlagan shaxsga pensiyani qayta hisoblab chiqish tartibi takomillashtirilgan.

chet elda ishlayotgan fuqarolar hamda ish vaqtini hisobga olib bo‘lmaydigan shaxslarning ayrim toifalari tomonidan Pensiya jamg‘armasiga to‘lovlar amalga oshirish mexanizmi joriy etish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 22-fevraldagi “Chet elda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda ish vaqtini hisobga olib bo‘lmaydigan shaxslarning ayrim toifalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga yagona ijtimoiy to‘lov to‘lash tartibini, shuningdek, ularning pensiyani hisoblash uchun olinadigan ish stajini va ish haqi miqdorini hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 46-son

qarori aks ettirilgan (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 13-iyundagi 01/30-03-32/1044-son, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 13-fevraldagi 14/3-16921-son ma’lumotnomalari). Natijada, 2022-yillarda chet elda ishlayotgan fuqarolar hamda ish vaqtini hisobga olib bo‘lmaydigan shaxslarning ayrim toifalari tomonidan to‘lanadigan to‘lovlar summalari bir xillashtirildi. Natijada, ushbu toifadagi shaxslar tomonidan Pensiya jamg‘armasiga to‘lovlar 2021-yilga nisbatan 61 foizga yoki 36,0 mlrd. so‘mga ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti natijalari 3 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan 2 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 130 betni tashkil etadi.

